



THE HISTORY AND DEVELOPMENT STAGES OF NARRATIVE STRATEGIES IN MODERN ENGLISH LITERATURE

Ismoilov Jamshidbek Yoldosh ugli

First-Year PhD Student, DTPI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20823089>

ARTICLE INFO

Received: 02nd June 2026

Accepted: 08th June 2026

Online: 09th June 2026

KEYWORDS

narrative strategy,
narratology, mimesis,
diegesis, unreliable
narrator, narrative
grammar, reader
perception, structuralism,
post-classical
narratology.

ABSTRACT

This article explores the historical evolution and conceptual development of "narrative strategy," a cornerstone concept in contemporary literary studies. Beginning with the classical philosophical paradigms of Plato and Aristotle regarding mimesis and diegesis, the study traces the transformation of narrative techniques into a rigorous academic discipline. Special attention is given to the emergence of structuralist narratology in the late 1960s, led by Tzvetan Todorov, and its subsequent refinement by Gerard Genette and Roland Barthes. Furthermore, the paper analyzes the communicative-receptive shifts introduced by Wolfgang Iser and Umberto Eco, alongside Wayne Booth's theory of the "unreliable narrator." Finally, the research examines the cognitive and post-classical turns in 21st-century English fiction, particularly through the works of Ian McEwan and Kazuo Ishiguro, demonstrating how contemporary narrative strategies shift focus from mere structural mechanics to active reader engagement and consciousness manipulation.

ИСТОРИЯ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ «НАРРАТИВНЫХ СТРАТЕГИЙ» В СОВРЕМЕННОЙ АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Исмоилов Жамшидбек Ёлдош угли

Базовый докторант 1 курса ДТПИ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20823089>

ARTICLE INFO

Received: 02nd June 2026

Accepted: 08th June 2026

Online: 09th June 2026

ABSTRACT

В данной статье исследуется историческая эволюция и концептуальное развитие понятия «нарративная стратегия», являющегося одним из центральных терминов современного литературоведения. Начиная с античных философских парадигм Платона и Аристотеля о мимесисе и диэгесисе, работа прослеживает трансформацию повествовательных техник в строгую академическую дисциплину. Особое внимание уделяется возникновению структурной



KEYWORDS

Нарративная стратегия, нарратология, мимесис, диегесис, ненадёжный рассказчик, нарративная грамматика, восприятие читателя, структурализм, постклассическая нарратология.

нарратологии в конце 1960-х годов под руководством Цветана Тодорова и её последующему развитию в трудах Жерара Женетта и Ролана Барта. Кроме того, анализируется коммуникативно-рецептивный сдвиг, предложенный Вольфгангом Изером и Умберто Эко, а также теория «ненадёжного рассказчика» Уэйна Бута. В заключении рассматривается когнитивный и постклассический этапы развития английской прозы XXI века на примере творчества Иэна Макьюэна и Кадзуо Исигуро, где современные нарративные стратегии смещают фокус с чисто структурной механики текста на активное восприятие читателя.

ZAMONAVIY INGLIZ ADABIYOTIDAGI "NARRATIV STRATEGIYALAR" TARIXI VA ULARNING BOSQICHLARI

Ismoilov Jamshidbek Yo'ldosh o'g'li

DTPI 1-kurs tayanch doktoranti

ismoilovjamshidbek9819@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20823089>

ARTICLE INFO

Received: 02nd June 2026

Accepted: 08th June 2026

Online: 09th June 2026

KEYWORDS

Narrativ strategiya, narratologiya, mimesis, diegesis, ishonchsiz hikoyachi, narrativ grammatika, kitobxon idroki, strukturalizm.

ABSTRACT

Ushbu maqolada adabiyotshunoslikning muhim tushunchalaridan biri bo'lgan "narrativ strategiya" terminining shakllanish tarixi va uning evolyutsion bosqichlari tadqiq etiladi. Antik davr faylasuflari Platon va Aristotelning mimesis hamda diegesis haqidagi qarashlaridan boshlab, XX asrda S. Todorov tomonidan narratologiya faniga asos solinishi va J. Jenett, R. Bart, U. But kabi olimlar tomonidan ushbu yo'nalishning rivojlantirilishi tahlil qilinadi. Maqolada narrativ strategiyalarning zamonaviy ingliz adabiyotidagi o'rni va ularning kitobxon idroki bilan bog'liqlik jihatlari yoritib berilgan.

Kirish

Badiiy adabiyot taraqqiyotining hozirgi bosqichida matn tarkibi, strukturaviy tuzilishi va uni o'quvchi ongida qayta kashf etish mexanizmlarini tadqiq etish adabiyotshunoslikning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda. Globalizatsiya, madaniyatlararo muloqot va axborot oqimining jadallashuvi natijasida XXI asr ingliz romanchiligi ham janriy-uslubiy

jihatdan tub burilishlarni boshidan kechiryapti. Ayniqsa, asar mazmunini an'anaviy, ya'ni shunchaki xronologik biografizm yoki sotsiologik tahlil doirasida o'rganish zamonaviy matnlarning ko'p qatlamli tabiatini ochib berishda yetarsizlik qilmoqda. Bu esa jahon adabiyotshunosligida badiiy matnning ichki arxitektonikasi va hikoya qilish uslublarini strukturaviy, kognitiv hamda kommunikativ jihatdan



o'rganuvchi narratologik yondashuvlarga bo'lgan e'tibor va ehtiyojni har qachongidan ham kuchaytirdi.

Mazkur tizimli yondashuvlarning markazida "**narrativ strategiya**" tushunchasi turadi. Zamonaviy ingliz adabiyoti kontekstida narrativ strategiya — bu shunchaki voqelikni qog'ozga tushirish yoki bayon qilish texnikasi emas, balki muallif, badiiy matn dunyosi va kitobxon o'rtasidagi estetik va kognitiv muloqotni boshqaruvchi murakkab diskursiv mexanizmdir. Muallif o'z niyati, estetik g'oyasi va badiiy maqsadini o'quvchiga to'g'ridan-to'g'ri yuklamaydi; aksincha, matn ichiga yashirilgan turli xil fokalizatsiya turlari, ishonchsizlik effektlari, xronotop manipulyatsiyalari va paratekstual elementlar tizimi orqali kitobxon faolligini boshqaradi.

Asosiy qism

1.1 Zamonaviy ingliz adabiyotida "narrativ strategiyalar" tushunchasi va ularning turlari.

Zamonaviy adabiyotda o'rganilayotgan narrative strategiyalar aslida uzoq tarixga ega. Uni bugun yoki kecha bilan bo'g'lash noo'rindir. Uning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ularni birma-bir tahlil qilamiz:

1 . Antik davr. Bu davrda garchi narrative strategiya termini ishlatilmagan bo'lsada, badiiy adabiyotda keng foydalanishgan. Qadimgi yunon faylasuflari Platon va Aristotel o'z asarlarida narrative strategiya unsurlari bo'lmish "mimesis" (taqlid) va "diegesis" (hikoya qilish)

usullaridan foydalanishgan. Lekin bu ikki tushunchaga qarash turlicha bo'lgan.

Platon mimesis tushuncha rad qilgan va diegesis ma'qullagan. O'zining "Davlat" (Republic) nomli asari narratologiya fanining ibtidosi sifati qaraladi va unda hikoyani bayon qilish usullari berilgan. Bu asarning uchinchi kitobida hikoya qilish 2 usulga bo'linadi.

Diegesis – yozuvchi hikoyaning o'zining tili va qarashlaridan kelib chiqib yozadi. Bunda muallif asar qahramonlarining ortiga yashirinishmaydi, voqealar ketma-ketligini o'z tili orqali so'zlab beradi.

Mimesis – asarga qahramon niqobiga kirib yondashish. Bu holatda hikoyachi to'liq o'zligini yo'qotadi. Go'yoki so'zlovchi o'zi emas, balki asardagi personaj gapirayotgandek taassurot uyg'otadi.

Platon bu haqida shunday deydi: "Hikoya (diegesis) yo shoirning oddiy bayoni, yo taqlid (mimesis) yoki har ikkalasining birlashishi orqali amalga oshadi ... Agar shoir o'z nomidan gapirib, bizni o'zidan boshqa birov gapirayotganiga ishontirishga urinmasa, bu taqlid bo'lmaydi, balki oddiy hikoya bo'lib qoladi."¹

Platon matnidan parcha (III kitob, 392d): "Shoirilar yoki afsonachilar aytadigan hamma narsa o'tgan, hozirgi yoki kelajakdagi voqealarning bayoni (diegesis) emasmi? ... Ular buni oddiy bayon qilish, taqlid qilish (mimesis) yoki har ikkala usulni birlashtirish orqali amalga oshirmaslarmi?"

Platonning "Davlat" asari ilk bor asar qahramoni qiyofasida yondashib,

¹ Platon. Davlat / Rus tilidan o'zbek tiliga M. Mahmudov tarjimasi. — Toshkent: G'afur G'ulom

nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. — B. 112-115.



hikoyachini subyekt sifatida ko'radi. Bu hozir narratologiyaga oid asarlardagi narrator (hikoyachi) va fokalizatsiya (kuzatuvchi) o'tasida munosabatning antik ko'rinishidir.

Aristotel yondashuvi Platonnikidan farq qiladi. Mimesis san'atini asarning ajralmas qismi deb biladi va bu haqida faylasufning o'zi takidlagandek: "Qanday bo'lsa, shunday emas, balki bo'lishi mumkin bo'lganidek tasvirlash lozim". Xususan, faylasufning nazariyasi bo'yicha inson tabiatan taqlidga moyil bo'ladi va shu sabali mimesis san'ati insonga zavq bag'ishlaydi. "Poetika" asari orqali mimesis san'atini yana ham chuqurroq ochib bergan.

Faylasuf narrative strategiyalarni 3 guruhga ajratadi:

- > Taqlid vositalari – bular o'z ichiga rit, so'z va garmoniyalarni oladi.
- > Taqlid obyektini – yaxshi va yomon odamlarga bo'ladi.
- > Taqlid usuli – voqeyani bayon qilish yo'nalishlari o'rganiladi.

Aristotel asarlarida Platon g'oyalarini yana ham rivojlantirgan, ya'ni hikoya qilish usulini uch turga ajratadi: Sof – muallifning o'zi hikoya qiladi, Mimetik – qahramonlar orqali voqealar ochib beriladi va Aralash – muallif va qahramonlar birdek ishtirok etadi. Mimesisning mohiyati haqida shunday deydi:

"Epik va fojiviy she'riyat, shuningdek, komediya va difiramblar ... bularning barchasi, umuman olganda, taqlid (mimesis) san'atidir".²

2. Rossiya formalizmi. Bu atama ilk bor Rossiya formalistlari Viktor Shklovskiy va Boris Tomashevskiy tomonidan 1920-yillarda qo'llanilgan. Endilikda asosiy e'tibor asarning mazmunidan ko'ra shakli, tuzilishi va badiiy usullariga qaratilgan. Voqealarni tasvirlashda ikki yirik qatlamlardan foydalanilgan.

Fabula: Asardagi voqealar ketma-ketligi. Bunga Viktor Shklovskiy tahlil qilgan Lourens Sternning "Tristram Shendi hayoti va qarashlari" romanini misol keltirsak bo'ladi. Romanda fabula ketma-ketligi quyidagicha: qahramon tug'ilad, o'sadi va o'z hayoti haqida gapirib beradi. Ya'ni fabulaning asosiy maqsadi asardagi voqealar tartibini buzmasdan, to'g'ri ketma-ketlikda bayon qilish usulidir.

Syujet – Voqeyalarning qanday bayon qilinishi. "Tristram Shendi hayoti va qarashlari" misolini olsak, yuqori asardagi ketma – ketlikni misol qilib keltirib o'tdik. Lekin yozuvchi asarni yaratayotganda kitobxonlarni qiziqtirish uchun fabula (xronologiyani) buzib yozadi. Ya'ni kitobxon asar qahramoni tug'ilishi sahnasigacha bir nechta yuz sahifa o'qish kerak bo'ladi.

Viktor Shlovskiyning fabula va syujet san'atlariga munosabati quyidagicha: Olim fabulani matn uchun kerak bo'ladigan xomashyo (material) ko'radi. Syujet esa "arxitektur"ning xomashyodan foydalanish san'atidir.

Olim bu haqida shunday fikrlarni bildirgan: "Fabula – bu shunchaki voqealar zanjiri bo'lsa, syujet – bu asardagi materialni o'quvchiga estetik

² Aristotel. Poetika / Rus tilidan M. Mahmudov tarjimasini. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. — B. 12-14.



ta'sir ko'rsatish uchun qayta joylashtirish san'atidir. Syujet tuzish (syujetoslojenie) – bu voqealarni shunchaki bog'lash emas, balki ularni ataylab sekinlashtirish, ortga qaytarish va g'aroyiblashtirish o'yinidir."

Boris Tomashevskiy esa fabulani voqealarning mantiqiy xronologik ketma-ketlik, syujetni esa hikoyachi tomonidan o'sha voqealarni o'zi istagandek joylashtirish san'ati deb biladi.

Bunga misol qilib, Artur Konan Doylning "Sherlok Holms" asarini keltirishimiz mumkin.

Detektiv asar fabulasi (real hayotda): Jinoyatchi reja tuzdi -> Jinoyatni sodir etdi -> Sherlok Holms keldi -> Izlarni topdi -> Jinoyatchini ushladi.

Syujet (kitobxon o'qiydigan tartib): Kitob o'lik topilganidan boshlanadi (jinoyat sodir etib bo'lingan) -> Detektiv tekshiruv o'tkazadi -> Oxirida o'quvchi va detektiv jinoyat qanday sodir etilganini (eng birinchi bo'lgan voqeani) bilib oladi.

Olimning qarashlari quyidagicha: "Fabulani asarni o'qib bo'lgandan keyingina xayolan tiklash mumkin. Syujet esa butunlay badiiy konstruksiyadir: unda muallif voqealar xronologiyasini buzish, qaysidir epizodni yashirish (sir saqlash) yoki voqeani boshqa bir personaj tilidan aytib berish orqali narrativ dinamikani yuzaga keltiradi."

3 . Narrativ strategiyalar terminining tug'ilishi. Fransiyada 1960 yillarning oxirlarida "narrative" temini paydo bo'ladi. Svietan Todorov "Muvozanat nazariyasi" nomi bilan mashhur bo'lgan nazariyani 1970

yillarda ishlab chiqqan va rivojlantirgan. Nazariya asosi besh bosqichdan iborat. Todorov "Muvozat nazariyasiga" asoslanib, 1971-yilda "Poetique de la prose" (Proza poetikasi) asarini yozadi. Asar tarkibi yirik epik asarlar va jahon adabiyoti namunalarini kiritib yanada boyitadi. Biz "Muvozanat nazariyasi"ni asardagi Homerning "Odisseya" dostoni orqali izohlab o'tamiz.

1. Dastlabki muvozanat – "Muvozanat nazariyasi"ning birinchi bosqichi. Hamma narsa joyida, bir tekis va tinch holatda. Asardagi qahramonlar doimig'i ish yumushlari bilan band. "Odisseya" dostonidagi birinchi bosqich: Odissey o'z vatani Itaka orolida tinch va xotirjam podshohlik qilayapti.

2. Muvozanatning buzilishi – "Muvozanat nazariyasi"ning ikkinchi bosqichi. Tashqi va ichki kuch yoki voqea sababli qahramonlarning tinch hayoti buziladi, ya'ni tinch holatni boshqa bir harakat yoki voqea buzadi. "Odisseya" dostonidagi ikkinchi bosqich: Odisseyaning tinch hayotini Troya qilinadigan urush buzadi va u urushga jo'nab ketadi.

3. Muvozanatning buzilganini anglash – "Muvozanat nazariyasi"ning uchinchi bosqichi. Endilikda asar qahramonlari noto'g'ri yo'lda ekanliklarini tushunib yetadi. "Odisseya" dostonidagi uchinchi bosqich: Uzoq yil davom etgan urush va sarguzashtlar natijasida Odissey xato qilganini tushinib yetadi va hayoti izdan chiqqanligini tan oladi.

4. Muvozanatni tiklashga urinish – "Muvozanat nazariyasi"ning to'rtinchi bosqichi. Asar qahramonlari izdan chiqqan muvozanatni joyiga qaytarishga harakatni boshlaydi. Tartibni o'rnatish



uchun faol harakat qiladi va qiyinchiliklarni tiklaydi. "Odissey" dostonidagi to'rtinchi bosqich: Odissey uyiga qaytib keladi. Saroyni egallab olgan xoinlarga qarshi kurashni boshlaydi va tartibni tiklashga harakat qiladi.

5. Yangi muvozanatning qaror topishi – "Muvozanat nazariyasi"ning beshinchi bosqichi. Oldingi tartib va tinch holat tiklanadi. Biroq bu oldingidan ko'ra yana ham mustahkamroq bo'ladi. Sababi, qahramonlar endi tarjiba orttirishgan va tinchlikni saqlashga kuchli harakat qilishadi. "Odissey" dostonidagi beshinchi bosqich: Vanihoyat, Odissey tartibni tiklashga erishadi va xotini Penelopa bilan Itaka orolida yangi tartibni o'rnatishadi.

Todorovning 1969-yilda yozilgan "Grammaire du Decameron" (Dekameron grammatikasi) asari "Muvozanat nazariyasi" haqida ilk to'plam hisoblanadi. Olim asarda Jovanni Bokachchaning "Dekameron" novellarini to'playdi va matnlarda berilgan ot, sifat va fe'l so'z turkumiga mansub so'zlarni tahlil qilib chiqadi. Asar ichiga yuzlab qisqa hikoyalar va novellarni kiritadi va ularning barchasi 5 bosqichdan iborat "Muvozanat nazariyasi" bo'ysunib yozilganini isbotlaydi. Asardagi birinchi kun, 3-novellasi bo'lgan "Uch uzuk haqida qissa" (Yaxudiy Melxisedek va Sulton Salohiddin hikoyasi) muvozanat nazariyasining yorqin misoli bo'la oladi. Hikoyaning borish tartibi quyidagicha: Qohirada Sulton Solahiddin hukmron qiladi. Mamlakatda osoyishtalik hukmronlik qilmoqda. Shaharda yashovchi asli yahudiy diniga mansub Melxisedek sudxo'rlik orqali juda boyib ketadi. Hammasi joyida va hayot bir maromda o'tmoqda. (1-bosqich).

Kutilmaganda tartib buziladi. Sulton xazinalari bo'shab qoladi. Bunga yechim sifatida, sulton Melxisedekning boyligi tortib olishni rejalashtiradi va tuzoq o'ylab topadi. Melxisedekni saroyga chaqiradi va unga shunday savol beradi: "Uch dindan (islom, nasroniylik va yahudiy) qaysi biri eng haqiqiy va to'g'ri?" Maqsad shundan iboratki, agar Melxisedek yahudiy desa, sultonni haqorat qilgan bo'ladi yoki islomni tanlasa, nega yahudiy bo'lib yuribsan deb har ikki holatda ham mol-mulkini tortib oladi. (2-bosqich). Melxisedek sulton hiylasini tushunib yetadi va to'g'ridan to'g'ri javob berish o'linga olib kelishini anglaydi. (3-bosqich). Vaziyatdan chiqib ketish uchun, savolga javob berish o'rnini sultonga "uch uzuk" haqida hikoya aytib beradi.

Uch uzuk hikoyasi

"Qissa Sharq mamlakatlaridan birida yashagan boy va nufuzli inson haqida hikoya qiladi. Uning oilasida avloddan-avlodga meros bo'lib o'tadigan noyob uzuk bor edi. Rivoyatga ko'ra, bu uzuk egasiga alohida hurmat va e'tibor keltirar, uni oilaning munosib davomchisi sifatida ko'rsatardi. Shu sababli uzuk har doim otadan eng munosib yoki eng sevimli o'g'ilga o'tib kelgan.

Vaqt o'tib, uzuk egasi bo'lgan otaning uch nafar o'g'li voyaga yetadi. Ota ularning uchalasini ham birdek yaxshi ko'rar edi. Shuning uchun u uzukni qaysi biriga berishni hal qila olmaydi. Birini tanlasa, qolgan ikkitasi ranjishi mumkin edi.

Shunda ota mohir zargarga murojaat qilib, asl uzukdan farq qilib bo'lmaydigan yana ikkita uzuk yasatadi. Zargar shunday mahorat bilan ishlaydiki, hatto



ota ham qaysi biri asl uzuk ekanini ajrata olmay qoladi.

O'limi yaqinlashgach, ota har bir o'g'lini alohida huzuriga chaqiradi va har biriga bittadan uzuk berib, uni haqiqiy meros deb aytadi. Natijada uchala o'g'il ham o'zidagi uzuk asl uzuk ekaniga ishonadi.

Otasi vafot etgach, aka-ukalar orasida tortishuv boshlanadi. Har biri oilaning haqiqiy merosxo'ri ekanini va uzukning asl nusxasi o'zida ekanini da'vo qiladi. Ular bu masalani hal qilish uchun dono kishilar va hakamlarga murojaat qiladilar.

*Biroq hech kim uzuklarning qaysi biri asl ekanini aniqlay olmaydi, chunki uchulasi ham bir xil ko'rinishda edi. Shunda hakamlar uzukning haqiqiylikini uning tashqi ko'rinishidan emas, balki egasining xulqi, fazilatlarini va amallari orqali baholash kerakligini aytadilar. Agar uzuk rostdan ham egasiga ezgulik va obro' beradigan bo'lsa, bu uning hayotida namoyon bo'lishi kerak edi."*³

Hikoyadagi o'g'illar qaysi uzuk haqiqiy ekanligini bilmaganidek, Melxisedek sultonga uch din ham uzukka o'xshashini, ularning qay biri haqiqiylikini faqatgina Yaratganning o'ziga bilishini aytadi. (4-bosqich). Sulton yahudiy ttopqirligiga qoyil qoladi va tuzoq qo'yganligini tan oladi. O'z navbatida yahudiy sulton o'z ixtiyori bilan qarz berishga roziligini aytadi. Vaqt o'tishi bilan, sulton qarzlarini qaytaradi. Hammasi yana avvalgidek o'z joyiga tushadi. (5-bosqich).

"Narrativ strategiyalar tushunchasi XX asrning 60-70-yillaridagi shakllangan

klassik narratologiyaga borib taqaladi. Dastlab, strategiyalar faqatgina matn ichidagi texnik qoidalarning to'g'ri ishlatilganligi bilan shug'ullangan. Lekin fransiyalik olim Jerar Jenett bu tushunchani boyitdi va o'zining "Narrative Diskurs" asarida ta'kidlaydiki: strategiya – bu asosiy voqelik va bayon qilish usullari o'rtasidagi nomutanosiblikni mahorat bilan boshqarishdir. Endilikda hikoya qilish usullari ham o'zgardi.

Hozirgi kundagi adabiyotda "narrativ strategiyalar" tushuncha keng ma'nolarni qamrab oladi va u badiiy adabiyotning o'ziga xos tasvirlash vositasidir. Asarlarni nafaqat boyitadi balki kitobxonni bosh ko'tarmay o'qishga majbur qiladi. Mana shu sababli zamonaviy adabiyot yozuvchilari narrativ strategiyalarni badiiy asarlar arxetekturasi sifatida ko'rishadi. Strukturaviy narratologiya otasi hisoblangan fransiyalik mashhur profeesor Jerar Jenett hikoya qilish usulini vaqt va fokalizatsiyaga (hikoyaga kimning ko'zi bilan qaralayapti) bo'ladi va ilmiy asoslab beradi. Olim narrativ strategiyalar bo'yicha chuqur izlanishlar olib boradi va bir nechta yangi atamalarni kiritadi. Bular quyidagicha:

- **Fokalizatsiya** – hikoyani kim hikoya qilish emas, kimning nigohi tomonidan tahlil qilinishini o'rganadi.
- **Diegezis** – Hikoya qilinayotgan dunyo o'rganiladi.
- **Analepsis** – Hikoya qilish jarayonida o'tmishga sakrash.
- **Prolepsis** – Hikoya qilish jarayonida kelajakka sakrash.

³ Bokkachcho, Jovanni. Dekameron / Ruschadan Qodir Mirmuhammedov tarjimasini. — Toshkent:

G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. — B. 32-35.



➤ **Paratekst** – Sarlavha, muqova, rasm chizmlarning asar mazmuniga ta'siri.

Agar siz Ien Makyuening "Atinement" (tazarru) romanini o'qisangiz, yuqorida sanab o'tilgan 5 terminlarning hammasi mujassamlanganiga guvoh bo'lasiz. Asar uch qismga bo'lingan va uning qisqacha bayoni quyidagicha:

1-davr. Asar boshida 1935-yildagi Angliyadagi boy badavlat Tallislar xonadoni tasvirlanadi. Boy oilaning ikki qizi bo'lib, kattasining ismi Sessiliya kichkinasining ismi esa Brayoni edi. Opasi Sessiliya bog'bon yigit Robbiga pinhonako'ngil qo'yadi. Kunlardan bir kuni Brayoni Robbining opasiga Sessiliya yozgan maktubini topib oladi. Endi 13 yoshni qarshilagan Brayoni Robbining sevgi maktubini noto'g'ri tushunadi va opasiga tajavuz qilayapti deb tushinadi. O'sha voqeadan ko'p o'tmay Tallislar xonadoni mehmonga kelgan yosh xonimning nomusiga tajavuz qilinadi va Brayoni hech ikkilanmasdan bu ishni Robbi qilgan deb politsiyaga bayonot beradi va Robbi qamaladi.

2-davr. Ikkinchi jahon urushi davri tasvirlanadi. Robbi ozodlikka chiqish uchun ko'ngilli sifatida urushga yuboriladi va Fransiya hududlarida jang qiladi. Bu yoqda Sessiliya oilasidan ketib qoladi va hamshira sifatida urush ortida xizmat qiladi. Singlisi Brayoni ham endi yosh qiz emas, xatosini anglaydi va pushaymonligini yuvish uchun u ham hamshira sifatida urushga boradi. Kunlardan bir kun, opasini ko'rgani brogan Brayoni, opasining uyida Robbini ko'radi. Robbi urushdan tirik qaytgandi va Brayonidan qattiq g'azabda edi. Brayoni qilgan ishi uchun uzr so'raydi va

politsiyadan ko'rsatmasini bekor qilishni so'raydi va Robbi oqlanadi.

3-davr. 90-yillar keksa Brayoni o'z uyida o'tmish voqealari eslashi tasvirlanadi. Mana shu yerda katta burilish yuz beradi. Aslida Robbi va Sessiliya hech qachon qayta uchrashishmagan. Robbi urushda og'ir yarador bo'lib vafot etgan. Opasi sessiliya metrodagi portlash tufayli vafot etgandi. Brayoni esa butun umr pushaymonlikda hayot kechirardi. Kitob nomining Tazarru deb nomlanishi ham shu sababli. 2-davrdagi voqealar Brayoni xayolida sodir bo'lgan. Asar to'liq "ishonchsiz hikoyachi" usulida yozilgan.

Yuqoridagi 5 termindan asarda mahoratli tarzda foydalanilgan.

1. **Fokalizatsiya (kimning nigohi bilan ko'rish)** – Asar boshidagi Brayoni bog'bon yigit Robbi va opasi Sessiliyaning uchrashuvini noto'g'ri bohalaydi. Ya'ni asar yozuvchi nigohi bilan emas, balki yosh qizaloq Brayoni nigohi bilan baholanadi va bu asar qahramonlari taqdirini butunlay o'zgartirib yuboradi.

2. **Diegezis (hikoya qilinayotgan dunyo)** – Romanda uch xil dunyoni (voqealar sodir bo'adigan joyini) ko'rishimiz mumkin. 1. 1935-yildagi boy-badavlat Tallislar xonadoni. 2. 1940-yildagi urush maydonlari (Robbi dunyosi) 3. London gospitaldagi Brayoni dunyosi.

3. **Anleptis (o'tmishga sakrash)** – Robbining urush davridagi og'ir yarador bo'lgan paytlardagi o'tmish xotiralari, ya'ni qamalmasidan oldingi Sessiliya bilan kutubxonada o'tkazgan samimiy suhbatlarni eslaydi.

4. **Proleptis (Kelajakka sakrash)** – Asarning birinchi qismida Brayonining



xatosidan keyin, yozuvchi kelajakni basharot qilib, shunday deb yozadi: “U o`shanda bu xatosi uchun 50 yil davomida badal to`lashini va butun umri pushaymonlikda o`tishini hali bilmas edi.”

5. Paratekst (Sarlavha va Muhit ta`siri) – Kitobxon asarning nomini (Atonement – tazarru) o`qishi bilanoq, kitobni ochmasdanoq, asar qahramoni xatosi tufayli butun umr pushaymonlikda yashashini taxmin qilishi mumkin.

Kommunikativ-rezeptiv yondashuv XX asrning so`nggi choragi va XXI asrning boshiga kelib eng asosiy tushunchaga aylandi. Bunda asarni hikoya qilish jarayonida faqatgina axborotni yetkazishgina emas, balki kitobxonni uni qabul qilishi, eshitishi va qayta tahlil qilishini o`z ichiga oladi. Bu jarayon ikki turga bo`linadi: birinchisi hikoyachi (narrator) bo`lsa, ikkinchisi qabul qiluvchi (retsipient). Shu yo`nalish bo`yicha Volfgang Izer va Umberto Eko kabi olimlar ijod qilishgan.

Buyuk nemis olimi, Konstans maktabi vakili Volfgang Izerning qarashlari quyidagicha:

- > **Bo`shliqlar (Gaps)** - “ Muallif matnda hamma narsani mufassil yozmaydi, ataylab “bo`shliqlar” qoldiradi.

- > **Nazarda tutilgan kitobxon (Implied Reader)** – “ Bu real odam emas, balki matnning o`zi talab qiladigan, muallif tomonidan matn strukturasi kodlangan “o`quvchi modeli”dir.

- > **Kommunikatsiya mohiyati** – “Agar matnda bo`shliqlar bo`lmasa, o`quvchi zerikadi. Strategik bo`shliqlar esa o`quvchini matnni “yaratish” jarayoniga jalb qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, olim Volfgang Izer kitobxonni asardagi bo`shliqlar orqali, hikoya jarayoniga jalb qilishga va uning faol ishtirokchisi sifati bo`sh joylarni to`ldirishga undaydi.

4 . Ueyn But (Wayne C.Booth) nazariyasi. Olim 1921-yilning 22-fevralida AQShning Yuta shtatida tug`ilgan. Yoshlik davrdanoq axloq, etika va e`tiqod masalalariga jiddiy qaragan va ularni qunt bilan o`rganib chiqqan. Bakalavr darajasini Brigem Yang universitetida tahsil oladi. Shundan so`ng biroz muddatga o`qishni to`xtatishga to`g`ri keladi. Sababi ikkinchi jahon urushi boshlanib qoladi va armiyada xizmat qilish uchun urushga jo`nab ketadi. Urush tugagach, vataniga qaytib keladi. Nufuzli Chikago universitetida magistrlik va doktorlik darajalarini oladi. Mehnat faoliyati asosan o`zi o`qigan universitetda professor sifatida, shuningdek bir muddat adabiyotshunoslik kafedra mudiri sifati faoliyat yuritadi. Ueyn But 1961-yilda nashr ettirgan “Proza ritorikasi” (The Rhetoric of Fiction) kitobi orqali hikoya qilish strategiyalarini tahlil qilgan. Olim adabiyotga ikkita tushunchani olib kiradi. Bular: Nazarda tutilgan muallif (Implied Author) va Ishonchsiz hikoyachi (Unreliable Narrator).

Nazarda tutilgan muallif (Implied Author)

Ueyn Butning fikricha, kitobxon real hayotdagi yozuvchi bilan kitobdagi muallif obrozini farqlab olishi lozim. Aniqroq qilib aytganda, yozuvchi real hayotda bodhqa insonlar qatori adashishi yoki xato qilishi mumkin. Lekin kitobxon o`qiyotgan badiiy asardagi muallif o`zini mukammal ko`rsatishga harakat qiladi. Bu haqida “Proza



ritorikasi” asarida quyidagi fikrlarni bildiradi:

“The novelist’s choices are not choices between rhetorical artifice and unmediated reality, but choices among different kinds of rhetorical artifice”

(“Roman yozuvchisining tanlovi – bu ritorik usullar vas of, o`zgartirilmagan borliq o`rtasidagi tanlov emas, balki ritorik usullarning har xil turlari o`rtasidagi tanlovdir”)

Aynan shu fikrlar orqali Ueyn But zamonaviy romanchilarni tanqid qilgan. Ular qanchalik haqiqiy hayotni asarlarini ko`rsatishga urinmasin, yaratgan asarlari baribir to`qimaligicha qolaveradi.

Fikrimizni ko`proq dalilashimiz uchun, “Proza ritorikasi”dan olingan boshqa bir parchaga qaratamiz:

“The implied author chooses, consciously or unconsciously, what we read; we infer him as an ideal, literary, created version of the real man; he is the sum of his choices.”

(“Nazarda tutilgan muallif biz nimalarni o`qishimiz kerakligini ongli yoki ongsiz ravishda tanlaydi; biz uni real insonning ideal, adabiy va yaratilgan varianti sifatida his qilamiz; u o`z tanlovlarining yig`indisidir”)

Bu qismdan biz xulosa qilamizki, real hayotda yozuvchi bilan matn ichidagi yozuvchi o`rtasida katta farq bor.

Ishonchsiz yozuvchi (Unreliable Narrator)

Ueyn But ta`kidlaydiki, kitobdagi voqealar zanjiri har doim ham muallif tomonidan aytilavermaydi. Muallifning o`rniga asardagi qahramonlar hikoya qilishi mumkin. Yana shu jihati muhimki, o`sha hikoya qilayotgan asar qahramoni ruhiy kasalligi, hali yoshligi yoki bo`lmasa shaxsiy manfaati tufayli

voqealarni buzib talqin qilishi mumkin. Shuning uchun kitobxon asarni o`qish davomida doim hushyor bo`lishi va sodir bo`layotgan voqealarga shubha ko`zi bilan qarashi lozim.

Bu haqida olim “Proza ritorikasi” asarida quyidagi fikrlarni bildiradi:

“I have called a narrator reliable when he speaks for or acts in accord with the norms of the work (which is to say, the implied author’s norms), unreliable whe he does not.”

(“Agar roviy asarning (ya`ni, nazarda tutilgan maullifning) ichki normalari va qadriyatlariga mos ravishda gapirsa yoki harakat qilsa, men uni ishonchli deb atayman; agar u ushbu normalardan og`ishsa – u ishonchsiz hikoyachidir”)

Bu parcha orqali biz tushunishimiz kerak bo`lgan xulosa shundaki, agar muallif matndagi voqealarni haddan ziyod bo`rttirib tasvirlasa yoki adashtirishga urinsa, demak u “ishonchsiz hikoyachi”dir.

Umuman olganda, hikoyalarni ishonchsiz bo`lishi uch turga ajratiladi. Birinchi turda, asar qahramoni ataylab o`zini yaxshi ko`rsatish uchun haqiqatni yashiradi va kitobxonni chalg`itadi. Ikkinchi turda, asar qahramonlari bilmasdan hikoya voqealarini aralashtirib yuboradi. Ko`pincha yosh va hali hayot tushunchasi kam bo`lgan qahramonlar xatolari tufayli chalkashliklar yuzaga keladi. Uchunchi turda ruhiy holat bilan bog`liq vaziyatlar kiradi. Bunda qahramonlar beixtiyor chalkashliklarni vujudga keltiradi.

5 . Narrativ burilish. Olimlar narrativ strategiyalarni faqatgina adabiy usul emas, balki insoni va dunyoni anglash usuli sifatida talqin qilina boshlaydi. Bu hodisa 1980-yillarda



yuzaga keladi. Bu davrning koʻzga koʻringan namoyondalaridan biri fransiyalik yozuvchi Lyotard 1979-yilda "Postmodern holat" (La Condition postmoderne) asari orqali tub burilish qiladi.

Ushbu asarning parchani tahlil qilamiz: "En simplifiant à l'extrême, on tient pour « postmoderne » l'incrédulité à l'égard des métarécits".⁴

Oʻzbekcha tarjimasini quyidagicha: "Juda soddalashtirib aytganda, men "postmodern" tushunchasini meta-narrativlarga (buyuk hikoyalarga) boʻlgan ishonchsizlik deb belgilayman."

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, XX asrning soʻnggi choragida ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida yuz bergan epistemologik burilish, xususan '**Narrativ burilish**' (**Narrative Turn**) hodisasi fransuz faylasufi Jan-Fransua Liotarning '**Postmodern holat**' (1979) asari bilan yangi metodologik bosqichga koʻtarildi. Liotar postmodernizm davri falsafasini muayyan ijtimoiy-goyaviy qoʻliqlar asosida emas, balki sof narrativ diskurs sathida tahlil qildi. Olimning 'juda soddalashtirib aytganda, men postmodern tushunchasini meta-narrativlarga boʻlgan ishonchsizlik deb belgilayman' degan fundamental xulosasi, adabiyotshunoslikda universal xarakterga ega boʻlgan 'buyuk hikoyalar' inqirozini asoslab berdi. Liotar kontseptsiyasiga koʻra, globallashtirilgan totalitar narrativlarning parchalanishi badiiy tafakkurda lokal va sub'ektiv 'kichik hikoyalar' (mini-narratives) pluralizmini (rang-barangligini) yuzaga keltirdi. Ushbu

falsafiy-narrativ burilish XXI asr yangi ingliz romanchiligining janr-uslubiy landshaftini belgilashda muhim omil boʻldi. Zero, zamonaviy romandagi xronotopik chalkashliklar, fokalizatsiyaning koʻp qatlamliligi va roviy ishonchsizligi muallifning yagona mutloq haqiqatni inkor etib, lokal narrativ strategiyalarga tayanayotganidan dalolat beradi.

6 . XXI asrning Kognitiv va Postklassik bosqichi. Bu bosqich endilikda yozuvchi kitobxon ongiga kirib boradi. Oʻquvchi miyasida virtual olam yaratadi va uni boshqaradi.

Taniqli italiyalik yozuvchi va adabiyotshunos Umberto Eko "ochiq asar" nazariyasini ilgari suradi. Yozuvchining fikricha asar kitobxon uchun toʻliq tugallangan boʻlishi kerak emas, turli talqinlar uchun ochiq holatda qolishi kerak deb hisoblaydi. Uning 1979-yilda chiqqan "The Role of the Reader" asar juda kata burilish yasadi.

1990-yillardan boshlab rivojlana boshlangan yana bir yoʻnalish bu post-klassik narratologiyadir. Uning klassik narratologiyadan farqi, yozuvchi diqqatini hikoya qanday tuzilishiga emas, nima uchun tuzilganiga, oʻquvchi uni qanday qabul qiladi va shu bilan birgalikd madaniy omillarga qanday taʼsir qilishiga qaratadi.

Ian MacEwan va Kazuo Ishiguro zamonaviy ingliz adabiyotida narrative strategiyalarda obyektiv va subyektiv chegaralarni ancha xiralashtirishga yordam beradi. Asarlar yaratilishda asosiy urgʻu texnik usullarga emas, balki muallif va kitobxon oʻrtasida

⁴ Lyotard, Jean-François. La Condition postmoderne: rapport sur le savoir. — Paris: Éditions de Minuit, 1979. — P. 7-9, 43.



muloqotdan tashkil topadi. Ian MacEwan o'zing "Atonement" (Tazarru) asarida kitobxonni asar ichiga olib kiradi va asardagi voqealar qo'shilib, ba'zan g'azablanishi, achinishi, tasalli topish mumkin. Kauo Ishiguroning "Never let go" asarini o'qiyotganda inson nimaga? nima uchun? kabi savollar girdobida qoladi. Chunki asar qahramonlari barcha haqiqatdan boxabar bo'lsalarda, unga qarshi chiqmaydi uning o'rniga taqdirga bo'ysunadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, narrativ strategiyalar tushunchasi uzoq tarixiy evolyutsiyani bosib o'tgan. Platon va Aristotel

tomonidan asosi qo'yilgan bayon qilish va taqlid qilish san'ati XX asrning ikkinchi yarmida S. Todorov, J. Jenett va R. Bart kabi olimlar sa'y-harakatlari bilan mustaqil fan — narratologiya darajasiga ko'tarildi. Zamonaviy ingliz adabiyotida narrativ strategiyalar nafaqat voqealar zanjirini qurishda, balki "ishonchsiz hikoyachi" kabi usullar orqali o'quvchi diqqatini manipulyatsiya qilish va matnning ko'p qatlamliligini ta'minlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Narrativ strategiyalarni tizimli o'rganish badiiy asarning estetik ta'sir kuchini va muallif niyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

References:

1. Аристотель. Поэтика. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. — 160 б.
2. Платон. Сочинения в четырех томах. Т. 3. Ч. 1 / Под общ. ред. А. Ф. Лосева и В. Ф. Асмуса. — СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та, 2007. — С. 185-200.
3. Booth W. C. The Rhetoric of Fiction. — Chicago: University of Chicago Press, 1961. — 455 p.
4. Genette G. Narrative Discourse: An Essay in Method. — Ithaca: Cornell University Press, 1980. — 288 p.
5. Todorov Tz. Grammaire du "Décaméron". — The Hague: Mouton, 1969. — 108 p.
6. Iser W. The Act of Reading: A Theory of Aesthetic Response. — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1978. — 248 p.
7. Eco U. The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts. — Bloomington: Indiana University Press, 1979. — 273 p.